

DAVLAT MAQSADLI JAMG‘ARMALARI VA ULARNING SAMARALI SHAKLLANISHI

Eshdavlatov Humoyun Nusratulla o‘g‘li
O‘zbekiston Davlat Iqtisodiyot universiteti,
Magistratura ve kechki ta’lim fakulteti,
Davlat moliyasi va xalqaro moliya yo‘nalishi,
2-kurs magistranti.

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat maqsadli jamg‘armalarining mohiyati, ularning iqtisodiy taraqqiyotdagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Jumladan, jamg‘armalarining shakllanish manbalari, ularni boshqarish mexanizmlari hamda samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil qilingan. Muallif davlat byudjeti tizimida jamg‘armalarining tutgan o‘rni, ularni shakllantirishda iqtisodiy va moliyaviy omillarning ta’sirini o‘rganadi. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida O‘zbekistonda mavjud davlat maqsadli jamg‘armalarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Maqola iqtisodchilar, moliyachilar va davlat moliyasi sohasida tadqiqot olib borayotgan olimlar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: davlat jamg‘armalari, maqsadli fondlar, byudjet siyosati, iqtisodiy barqarorlik, moliyaviy boshqaruv, davlat moliyasi, resurslarni taqsimlash, samaradorlik, fondlar shakllanishi, strategik rejalashtirish.

Mamlakat iqtisodiyotini barqaror tarzda o‘sishi uning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarining yanada mustahkamlanishida davlat maqsadli jamg‘armalarining o‘rni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Davlatning byudjetdan tashqari jamg‘armalari markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlari ixtiyoridagi qat’iy maqsadli xususiyatga ega bo‘lgan moliyaviy mablag‘lar yeg‘indisi hisoblanib, ular alohida davlat moliya tizimining ajralmas bo‘gini sifatida gavdalananadi.

Davalat maqsadli jamg‘armalarni moliyaviy mablag‘larining shakllanishi, taqsimlanishi va resurslardan maqsadli foydalanishi bevosita moliyaviy me’yoriy – huquqiy hujjatlar bilan muvofiqlashtiriladi.

Hozirgi kunda, butun dunyo bo‘ylab alohida sohalarni rivojlantirishga bo‘lgan e’tibor ortib bormoqda. Ushbu ishlarni amalga oshirish, uni moddiy jihatdan ta’minlash va faoliyati natijasida yuzaga keladigan mablag‘larni alohida jamg‘armaga jamlash uchun maxsus fondlar hamda jamg‘armalarni tashkil etishga bo‘lgan talab oshmoqda. O‘z navbatida, Davlatning byudjetdan tashqari jamg‘armalari miqdorining ortishi (ko‘payishi) ma’lum bir qiyinchilik va noqulayliklarni keltirib chiqargan. Xususan, jamg‘arma qat’iy maqsadli xususiyatga ega bo‘lgani bois, ayrim jamg‘arma

qat’iy maqsadli xususiyatga ega bo‘lgani bois, ayrim jamg‘armalarda moliyaviy resurslar keragidan ortiq bo‘lsa, ayrimlarida yetishmovchiliklar paydo bo‘lgan.

O‘zbekistonda Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab, mamlakatda Davlat byudjetini mustahkamlash bilan birga, Davlatning byudjetdan tashqari jamg‘armalarini ham tashkil etishga zarurat tug‘ilishi bu borada qilinishi zarur bo‘lgan ishlar uchun yetarlicha asos bo‘la oladi.

Ta’kidlash joizki, iqtisodiyot qisman nobarqaror bo‘lgan bir sharoitda, tijorat va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, zarur bo‘lgan sharoitlarda ularning moliyaviy operatsiyalarini rag‘batlantirish uchun davlat boshqaruv organlari o‘zgacha manbadan shakllangan moliyaviy resurslar hisobidan yangi ko‘rinishdagi Davlat maqsadli jamg‘armalari tashkil etishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Davlat budgetidan xoli bo‘lgan Davlatning byudjetdan tashqari jamg‘armalari muayyan bir muammoni bartaraf etish yoxud mavjud muammolar ko‘lamini qisqartirishga qaratilgan bo‘lib, davlat tomonidan qat’iy e’tiborga molik bo‘ladi.

Aynan ushbu jamg‘armalar qat’iy maqsadli xususiyatga ega bo‘lib, ularning moliyaviy resurslarini tashkil etish, taqsimlash va foydalanishni davlat tomonidan samarali nazorat qilish imkoniyatini beradi. Davlatning byudjetdan tashqari jamg‘armalari muayyan bir sharoitlarda, ya’ni daromadlariga nisbatan xarajatlari kam bo‘lgan hollarda, ortiqcha mablag‘lardan Davlat budgeti defitsitini niinflyatsion manbasi sifatida qisqartiradi yoki moliyaviy bozordan foiz va dividend shaklida manba olib, daromadlar hajmini yanada kengaytiradi

Mazkur kurs ishida, Davlat maqsadli jamg‘armalari faoliyatining rivojlanish istiqbollari umumiy 4 ta reja asosida yoritilgan bo‘lib, dastlab Davlat maqsadli jamg‘armalarini tashkil etishning ahamiyati, uning qonunchilik bazasi, daromadlari va xarajatlarini nazorat qilish ularni shakllanishi va sarflanishi bo‘yicha ma’lumotlar tahlil qilingan.

Statistik ma’lumotlar tahlil etilib, Davlat maqsadli jamg‘armalari faoliyatini yanada samarali tashkil etish bo‘yicha qilinadigan amaliy ishlar, ularning faoliyatini tahlil etilishi natijasida bir qator amaliy tusga ega bo‘lgan xulosa va takliflar bayon etilgan.

Davlat maqsadli jamg‘armalari byudjet paydo bo‘lishidan ancha avval vujudga kelgan. Datlabki ko‘rinishi mamlakatlarda fondlar deb yuritilgan. Ularning paydo bo‘lishi davlat faoliyatining kengayishiga yangi xarajatlar va tegishli ravishda ularni amalgalashishga zarur bo‘lgan qo‘shimcha mablag‘lar bilan bog‘liq. Eng qadimgi davlat maqsadli jamg‘arma (fond)lariga qadimgi Xitoy, Hindiston, Misr, Qadimgi Gretsiya va Qadimgi Rimda paydo bo‘lgan hayriya fondlarini kiritish mumkin. Keyinchalik bu fondlar ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy va boshqa funksiyalarini bajara boshlagan.

1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi davrida davlatlarda, iqtisodiy rivojlanishga bo‘lgan harakat kengayib, davlat maqsadli pul mablag‘lariga ega qo‘s Shimcha fondlarni tashkil etishga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Bu davrda iqtisodiy ko‘maklashuv va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ya’ni aholining alohida ijtimoiy guruhlari manfaatlarini himoya qilish uchun davlat maqsadli fondlari paydo bo‘ldi.

Hozirgi kunga kelib, ushbu jamg‘armalar o‘z aktualligini ko‘rsatib kelmoqda:

Jamg‘arma va fondlar byudjet bilan birgalikda davlatning iqtisodiyotga aralashuviga imkon beradi va tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydi;

davlat maqsadli fondlarining maqsadli xarakteri va maqsadi ularning mablag‘laridan samarali foydalanishni davlat tomonidan nazorat qilishni yengillashtiradi;

ma’lum bir hollarda (faol saldo mavjudligi) fondlarning mablag‘lari byudjet defitsitini qoplash uchun jalg qilinishi mumkinligi bilan ahamiyatlidir. Davlat maqsadli jamg‘armalarini tashkil etishning maqsadi jamiyat uchun muhim bo‘lgan xarajatlarni byudjet mablag‘laridan tashqari mustaqil manbalar hisobidan ta’minalashdan iboratdir.

Davlat maqsadli fondlarining mablag‘lari bilan ishlab chiqarish jarayonida katta ahamiyat kasb etib, tashkilot va muassasalarga kreditlar va subsidiyalar beradi, ijtimoiy-siyosiy chora-tadbirlarini amalga oshirishda ko‘maklashadi, shuningdek, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatadi. Byudjetdan tashqari maqsadli fondlarning izchil faoliyati natijasida aholi kuchli ijtimoiy himoya qilinishi bilan birga, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari ham rivojlantiriladi.

Davlat byudjetidan tashqari jamg‘armalar tashkil etish uchun quyidagi omillar ta’sir e’tadi:

Iqtisodiyot qisman nobarqaror bo‘lgan bir sharoitda tijorat va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, zarur bo‘lgan sharoitlarda ularning moliyaviy operatsiyalarini rag‘batlantirish uchun davlat boshqaruv organlari ortiqcha moliyaviy resurslar hisobidan yangi shakldagi qo‘s Shimcha Davlat fondlarini tashkil etish;

Davlatning byudjetidan xoli bo‘lgan Davlatning byudjetidan tashqari jamg‘armalari muayyan bir muammoni bartaraf etish yoxud mavjud muammolari ko‘lamini qisqartirishga qaratilgan bo‘lib, davlat tomonidan qat’iy e’tiborga molik bo‘ladi. Aynan ushbu jamg‘armalar qat’iy maqsadli yo‘nalishga ega bo‘lib, ularning moliyaviy resurslarini tashkil etish, taqsimlash va foydalanishni davlat tomonidan samarali nazorat qilish imkoniyati tug‘iladi;

Davlatning byudjetidan tashqari jamg‘armalari muayyan bir sharoitlarda, ya’ni daromadlariga nisbatan xarajatlari kam bo‘lgan hollarda, ortiqcha mablag‘lardan Davlat byudjeti defitsitini kredit shaklda qisqartiradi yoki moliyaviy bozordan foiz va dividend shaklida Byudjetidan tashqari maqsadli fondlar umudavlat moliyasining muhim bo‘g‘ini bo‘lib, ularning faoliyati qat’iy belgilanganbo‘ladi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat maqsadli pul fondlarining o‘rni va roli juda muhimdir. Chunki, Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini samarali boshqarishda, aholi turmush darajasini oshirishda, ishlab chiqarishni rag‘batlantirishda bevosita Davlat byudjeti bilan birga davlat maqsadli fondlaridan ham foydalaniladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashuvi sharoitida davlat maqsadli fondlarining roli ortib borar ekan, undan samarali foydalanish milliy iqtisodiyotni rivojlanishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatish bilan birga mamlakat ichida iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlikni yuzaga kelishini ta’minlaydi.

Ijtimoiy talablar maxsus e’tiborni talab etadi. Shuning uchun ham rivojlanishning eng muhim yo‘nalishlarini aniqlash va mablag‘larni maqsadli ishlatalishi va yo‘naltirilishi ta’minalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu holatlar maqsadli umumdavlat vazifalarini moliyalashtirishda tegishli byudjetdan tashqari fondlarni tashkil etish uchun asos bo‘ldi.¹

Davlat maqsadli jamg‘armalari - bu ma’lum vazifalarni moliyalashtirish uchun davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘lar yig‘indisi bo‘lib, ular alohida fond sifatida yuritiladi. O‘zbekistonda ijtimoiy soha, infratuzilma, ekologiya va boshqa yo‘nalishlarda ko‘plab maqsadli jamg‘armalar mavjud. Ularning shakllanish manbalari quyidagilardan iborat:

Davlat byudjetidan ajratmalar
Soliq tushumlarining bir qismi
Chet el investitsiyalari yoki donorlar mablag‘lari
Davlatga tegishli korxonalar daromadlari
Jamg‘armalarni samarali boshqarish uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

Shaffoflik va ochiqlik prinsiplariga rioya qilish
Aniq va o‘lchab bo‘ladigan maqsadlar belgilanishi
Mablag‘lardan maqsadli va oqilona foydalanish
Doimiy monitoring va audit tizimi joriy etilishi

Dunyo tajribasida, ayniqsa, AQSh, Germaniya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda davlat jamg‘armalari strategik rejalashtirishning ajralmas qismi sifatida qaraladi. O‘zbekistonda ham bu yo‘nalishda ijobjiy qadamlar tashlanmoqda, biroq ayrim kamchiliklar, jumladan, ma’lumotlar yetishmasligi, muvofiqlashtirishdagi uzilishlar, nazorat mexanizmlarining zaifligi mavjud.²

¹ Samandarov G. Davlat byudjetining milliy iqtisodiyotdagagi ahamiyati va o‘ziga xosliklari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021.

² Бюджетно-налоговая политика Узбекистана: основные результаты и приоритеты. БИ Нурмухамедова, НМ Юлдашева - Science and Education, 2022

Xulosa qilib aytganda Davlat maqsadli jamg‘armalarining samarali shakllanishi va boshqarilishi mamlakat iqtisodiy barqarorligiga xizmat qiladi. Jamg‘armalarning ishslash tizimini takomillashtirish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish va ochiqlikni ta’minlash orqali ularning samaradorligini oshirish mumkin. Mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar va xorijiy tajribalar asosida doimiy takomillashtirish zarur. iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning bugungi bosqichida byudjet daromadlari ishlab chiqarishning rivojlanishi, xo‘jalik subyektlari va aholi daromadlarining oshib borishi, soliq bazalarining kengayishi, mulk shakllarining ko‘payishi bilan ortib bormoqda. Lekin bu davrda jamiyatning ko‘ptomonlama ehtiyojlari ham kamaygani yo‘q, aksincha, davlat byudjeti hisobidan mablaq’ bilan ta’milanishi obyektiv zaruriyat bo‘lgan, mohiyat jihatidan yangi-yangi tadbirlar, loyiham, yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Ularni to‘liq hajmda moliyalashtirish yanada ko‘proq mablag‘larni jalb qilishni taqozo etadi. Lekin daromadlarni muttasil oshirib borish (xususan, soliqlarni oshirish orqali) imkoniyati amaldagi soliq qonunchiligi hamda soliq to‘lovchilarining iqtisodiy imkoniyatlari bilan chegaralangan. Shu bilan birga, soliqlarni asossiz ravishda oshirish iqtisodiy subyektlarning xo‘jalik faoliyatiga jiddiy putur yetkazadi, ularning ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirishga bo‘lgan qiziqishlarini so‘ndiradi. Bunday sharoitda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlari bilan balanslangan bo‘lishiga har doim ham erishib bo‘lmaydi. Natijada davlatning oldida boshqa muhim makroiqtisodiy masala - byudjet taqchilligini iqtisodiy xavfsiz darajada ushlab turish masalasi ko‘ndalang bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2020-2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish Strategiyasi. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.08.2020-y., 09/20/506/1210-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. 2013-y., 26-dekabr.
3. Samandarov G. Davlat byudjetining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati va o‘ziga xosliklari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021.
4. Sherov A.U. O‘zbekistonda byudjet siyosati: amaliy va strategik yo‘nalishlari // “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 1, fevral, 2019-yil.
5. Бюджетно-налоговая политика Узбекистана: основные результаты и приоритеты. БИ Нурмухamedova, НМ Юлдашева - Science and Education, 2022
6. Fond bozori rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari va iqtisodiy o‘sish bilan bog‘liqligi AAOGL Nurmuxamedov, BI Nurmuxamedova Science and Education 4 (3), 836-847